

MAMLAKATIMIZDA INTELLEKTUAL MULK VA UNI SHAKLLANTIRISH

Holmirzayeva Gulruh Akbarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Investitsiya va innovatsiya kafedrası
assistenti. E-mail: gulruxxolmirzayeva@gmail.com

Abdusalomov Shoxro‘zbek Jabbor o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi
abdusalomovshoxrozbek@gmail.com

Hakimov Javohir Jahongir o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi
hakimovjavohir756@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda intellektual mulk tizimining joriy holati, uning huquqiy asoslari va ularni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Mamlakatimizda intellektual mulkni shakllantirish va himoya qilish jarayonlarining asosiy yo‘nalishlari, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda intellektual mulk tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual mulk, patent, mualliflik huquqi, innovatsiya, litsenziyalash, huquqiy tartibga solish, texnopark.

Kirish. Bugungi kunda global iqtisodiyotda intellektual mulkning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Innovatsiyalar, ijodiy ishlar va ilmiy yutuqlarning huquqiy himoyasi rivojlanayotgan mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekiston uchun ham bu sohani rivojlantirish muhim vazifalardan biriga aylangan. Ularni huquqiy himoya qilish va samarali boshqarish tizimini yaratish O‘zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asosiy omillardan biridir.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar va “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[1]gi Farmoni bilan bevosita bog‘liq. Ushbu strategiyada intellektual mulk sohasini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish masalalari alohida ta‘kidlangan. Shu bilan birga, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonida intellektual mulk himoyasi tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarurati ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda huquqiy bazani yanada mustahkamlash, intellektual mulk obyektlarini himoya qilish tizimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, shuningdek, ixtirochilar va mualliflar huquqlarini samarali himoya qilish maqsadida qator farmon va qarorlarni qabul qilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[2]gi Qarorida mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalari va innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqaviy brendlarni yaratish, kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasining oldini olish, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta‘minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirish maqsad qilib qo‘yilgan.

O‘zbekistonda intellektual mulk tizimi so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashtirilgan bo‘lsa-da, bu sohadagi qonunchilik bazasi va amaliy mexanizmlarni yanada rivojlantirish, intellektual mulk obyektlarini samarali himoya qilish va tijoratlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mavzuga oid ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarimizning imiy ishlari o‘rganildi. Jumladan, Wenwei Guan “Intellectual property theory and practice”[5] nomli kitobida Xitoyning intellektual mulk huquqlarining savdo-sotiq aspektlari to‘g‘risidagi bitimga (TRIPS) rioya qilishiga qaratilgan intellektual mulk nazariyasi va amaliyotini tanqidiy tekshirish orqali Xitoyning intellektual mulk istiqbolini Yevropa nazariyalari kontekstida tushuntiradi. Muallifning zamonaviy intellektual mulk falsafasiga tanqidiy sharhi shuni ko‘rsatadiki, Lokk yoki Hegelning mulk nazariyalari orqali intellektual mulkni himoya qilishni oqlash nazariy paradoksni o‘z ichiga oladi.

“Professor Wenwei Guanning XXR da intellektual mulk huquqi va amaliyotiga munosabati allaqachon faol bo‘lgan ta‘lim sohasini boyitadigan yangi istiqbollarni taklif etadi. Xitoyning intellektual mulkni himoya qilish tizimining kontseptual va operatsion jihatlarini va Xitoyning xalqaro hamkorlik jarayonini o‘rganadigan akademik va siyosiy nutqlarga foydali hissa bo‘ladi.”[5].

Pererva Petro “Formation of intellectual property commercialization strategies”[6] nomli maqolasida sanoat ishlab chiqarish sohasida intellektual mulk obyektlarini iqtisodiy muomalaga kiritish muammolari tahlil qilgan.

Olimlarning isbotlashicha “...sanoat korxonalarida intellektual mulkni shakllantirishning eng muhimi iqtisodiy va boshqaruv muammolari bo‘lib, ular zarur mablag‘larning yetishmasligidan iborat hamda intellektual mahsulotning bozor raqobatbardoshligini baholashning qiyinligi bilan belgilanadi. Bozor, texnik-

texnologik va huquqiy muammolarga alohida e'tibor qaratildi, ularning mavjudligi texnologik bozorning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va intellektual va innovatsion faoliyat samaradorligiga sezilarli ta'sir qiladi. Ushbu muammolarning mavjudligi tadqiqotning asosiy maqsadi - intellektual mulk ob'ektlarini tijoratlashtirish usullari va strategiyalarini ishlab chiqishni oldindan belgilab beradi.”[6], deb tushuntirgan.

Intellektual mahsulotlarni tijoratlashtirishning uchta asosiy strategiyasi o'rganildi[6]:

- intellektual mahsulotni ilgari surish strategiyasi;
- innovatsiyalarni tarqatish strategiyasi;
- maksimal daromadni to'plash strategiyasi;

Ular asosida sanoati korxonalari uchun aqlli mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samarasini maksimal darajada oshirish maqsadlariga erishishga qaratilgan intellektual mahsulotlarni tijoratlashtirishning kompleks strategiyasi shakllantirildi va asoslandi.

Bizningcha, integratsiyalashgan strategiyaning asosiy tarkibiy qismi innovatsion faoliyatni investitsiyaviy qo'llab-quvvatlashni va intellektual mahsulotni ilmiy va konsalting yordamini ta'minlaydigan tashkiliy mexanizmdir. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarining intellektual va innovatsion faoliyati dasturlarini shakllantirish uchun ishlatilishi mumkin va ushbu masalalar bo'yicha keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

V.I.Dobrenkov “Innovative development: international experience of intellectual property commercialization”[7] nomli maqolasida innovatsion sohadagi eng yaxshi global yutuqlarga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar bilan muvofiqlashtirilgan va yaxlit birlikda intellektual mulk mahsulotlarini tijoratlashtirish modeli ko'rib chiqilgan. Intellektual mulkni venchur boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish va rivojlantirishning umumiy sivilizatsiyaviy va o'ziga xos xususiyatlarining ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy asoslari keltirilgan. Mamlakatning innovatsion rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini shakllantirish juda qiyin, og'riqli va ziddiyatli kechganligi ko'rsatilgan.

Ijtimoiy beqarorlik sharoitida ilmiy faoliyatni boshqarishning an'anaviy usullari ilmiy-texnikaviy ish uchun qulay bo'lgan va tadbirkorlik erkinligiga asoslangan iqlim va makonni yaratishga yordam bermaydi, bu esa ijodkorlik, tavakkalchilik ishtahasi, muqobil variantlarni mustaqil tanlash, o'z tashabbusi, ishbilarmonlik madaniyati va boshqalarni o'z ichiga oladi. Intellektual mahsulotlarni uzatishning ilmiy asoslangan va texnologik kontseptsiyasi taqdim etilgan. Venchur biznesning mohiyatini yetarli

darajada tushunib, uning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik parametrlarini, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zini-o'zi tashkil etishdagi rolini ishonchli aniqlagan holda, Rossiyada innovatsion rivojlanishning ijobiy omillarini samarali joriy etish haqida ma'lum darajada bashorat qilish va bashorat qilish mumkinligi isbotlangan.

Mavzu bo'yicha mahalliy olimlarimizning tadqiqotlarini o'rganadigan bo'lsak, Y.E.Aliyev "Innovatsion iqtisodiyot"[8] nomli o'quv qo'llanmasida respublikada yaratilgan intellektual mulk ob'ektlarini tashkil qilishda fan va ishlab chiqarishning ikki tomonlama qiziqishlarini ta'minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish kerak. Olimlarning patent bilan himoyalangan har bir ishlanmasi belgilangan respublika korxonasi, firmasi yoki fermer xo'jaligida tajribada amalga oshirish uchun kerakli monitoringdan o'tkazilishi kerak.

"Intellektual mulk ob'ektlarining eng muhimlarini tadbqiq etish uchun, nafaqat tashkiliy tomondan qo'llash, balki tadbqiq etayotgan korxonadan maqsadli mablag' bilan ta'minlash ham zarur. Intellektual mulkdan foydalanuvchilar uni mualliflarini ishlab chiqarilgan mahsulotning iqtisodiy samaradorligiga qarab rag'batlantirish lozim. Respublikada yaratilgan intellektual mulkka mualliflik huquqini kengroq rivojlantirish, korxonalar, manfaatdor ishlab chiqaruvchilar va fermalar, davlat tuzilmalari tomonidan ularni qo'shimcha moddiy rag'batlantirishi kerak. Bu patentlar bilan himoyalangan innovatsiyalarni tijoratlashtirish yo'li hisoblanadi."¹

A.A.Mamatov, T.T.Jo'rayev, A.N.Erkayev "Innovatsion iqtisodiyot"[9] o'quv qo'llanmasida Intellektual mulk obyektlarining bu yopiq ro'yxati intellektual faoliyatning barcha natijalari muhofaza qilinishini anglatmaydi, o'z navbatida barcha bilimlarni ikki katta guruhga bo'lishimiz mumkin bo'ladi:

1) amaldagi huquqiy mexanizmlar orqali muhofaza qilish imkoni mavjud bo'lmagan bilimlar (g'oyalar, nazriyalar, kashfiyotlar);

2) muhofazalanadigan bilimlar. Muhofazalanadigan bilimlar o'z navbatida qandaydir sabablar bilan muhofazalanmasdan qolgan va huquqiy jihatdan himoyalangan intellektual mulkka bo'linadi. Amaldagi qonunchilik intellektual faoliyat natijalarini himoyalash borasida turli intellektual mulk obyektlarini tasarruf etish, foydalanish va ularga egalik qilish tartibini belgilab beruvchi turli huquqlar (mualliflik huquqi, patent huquqi va hokazo) larni ko'zda tutadi².

¹ O'sha manbadan: 134-135-betlar

² O'sha manbadan: 163-bet

Sh.B. Ismoilov “O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik aloqalari”[10] nomli maqolada O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi, uning rivojlanib borishi hamda o‘zaro hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar tahlil etilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan intellektual mulk muhofazasini ta‘minlashda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar va uning tahliliga to‘xtalib o‘tilgan.

“Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo‘llari”[11] nomli maqolamizda innovatsion faoliyatning zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni, uning dolzarbligi va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari, unga ta’sir qiluvchi omillar va baholash metodologiyasi tahlil qilingan. Xususan, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish resurslardan samarali foydalanish va mehnat faoliyatini yengillashtirish orqali ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston sharoitida innovatsion jarayonlarni jadallashtirish orqali mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta‘minlash yo‘nalishlari o‘rganilgan. Tahlil asosida innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish bo‘yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda intellektual mulk tizimini o'rganish va tahlil qilish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Huquqiy-normativ hujjatlarni tahlil qilish: O'zbekistonda intellektual mulkka oid qonunchilik bazasi, xalqaro shartnomalari va huquqiy hujjatlari o'rganildi.
- Statistik tahlil: O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa rasmiy manbalardan olingan statistik ma'lumotlar asosida intellektual mulk obyektlarining ro'yxatga olinishi, himoya qilinishi va litsenziyalanishi bo'yicha ko'rsatkichlar tahlil qilindi.
- Qiyosiy tahlil: O'zbekistondagi intellektual mulk tizimi boshqa mamlakatlar, xususan rivojlangan davlatlar va MDH davlatlari tajribasi bilan solishtirildi.
- Tizimli yondashuv: Intellektual mulk tizimining huquqiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy jihatlarini kompleks ravishda o'rganildi.

- Ekspert so'rovi: Intellektual mulk sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, huquqshunoslar va olimlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi va ularning fikrlari tahlil qilindi.

- Tadqiqot davomida O'zbekistonda intellektual mulkni shakllantirish va rivojlantirish borasidagi mavjud muammolar aniqlandi hamda ularni hal etish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy omil - bu moddiy resurslar emas, balki intellektual kapital bo'lib bormoqda. Bu esa intellektual kapitalga bo'lgan talabni oshirayapti. Kompaniyalar va davlatlar o'zining innovatsion salohiyati, inson bilimlari, yaratilgan ixtirolar va bilim mahsuliga asoslangan aktivlari orqali ustunlikka erishadi. Aynan shu jihat intellektual kapital va intellektual mulkning har qachongidan ham dolzarb mavzu bo'lishiga sabab bo'lyapti. Ilmiy qarashlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, intellektual kapital tarkibiga kiruvchi inson resurslari, tashkilot ichki bilim bazasi va mijozlar bilan shakllangan barqaror aloqalar tashkilotlar faoliyatida o'ziga xos qiymat yaratmoqda. Shu sababli, bu kabi boyliklarni aniqlash, huquqiy himoya qilish va iqtisodiy jarayonga jalb qilish bugungi kunning muhim vazifasiga aylangan.

O'zbekiston sharoitida ham bu yo'nalish bo'yicha sezilarli harakatlar qilinmoqda. Xususan, intellektual mulkni rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyalar qabul qilinib, patentlar va mualliflik huquqlari sonida ijobiy o'sish ko'zga tashlanmoqda. Biroq, mavjud salohiyatga qaramay, ko'plab ixtirolar va ilmiy ishlanmalar hali ham real iqtisodiy qiymatga aylantirilmayapti. Asosiy sabablar qatorida intellektual mulkni boshqarish tizimining zaifligi, tijoratlashtirish mexanizmlarining to'liq shakllanmagani, patentlash jarayonining murakkabligi va bu sohada maxsus bilimga ega mutaxassislar yetishmovchiligi turadi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan yaratilayotgan ixtirolarning katta qismi nazariy darajada qolmoqda va amaliyotga joriy etish masalasi ham yetarlicha yo'lga qo'yilmagan. Bu esa ilm-fan va iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikning kuchsizligini anglatadi. Ilmiy g'oyalarni intellektual mulkka aylantirish, uni huquqiy jihatdan mustahkamlash va undan iqtisodiy foyda olish uchun maxsus infratuzilma - texnoparklar, startup inkubatorlari, texnologiya transfer markazlari faoliyatini kuchaytirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1031-moddasiga ko‘ra, intellektual mulk obyektlari uch guruhga bo‘linadi. Intellektual mulk obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi[4]:

1. intellektual faoliyat natijalari:
 - fan, adabiyot va san’at asarlari;
 - ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari;
 - elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari;
 - ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;
 - seleksiya yutuqlari;
 - oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);
2. fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:
 - firma nomlari;
 - tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari);
 - geografik ko‘rsatkichlar;
 - tovarlar chiqarilgan joy nomi;
3. ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Shu munosabat bilan 2022 - 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi (keyingi o‘rinlarda Strategiya) qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etmoqda[12]. Strategiyaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan tashkil topgan:

- intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish;
- intellektual mulk sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;
- intellektual mulk obyektlarini yaratish va ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini yanada takomillashtirish;
- intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish;
- intellektual mulk bilan bog‘liq munosabatlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish va takomillashtirish;

- jamiyatda intellektual mulkka bo'lgan hurmat hissini shakllantirish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish;
- intellektual mulk sohasidagi xalqaro standartlarni implementatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Intellektual mulk obyektlarining ro'yxatga olinishi bo'yicha statistik ma'lumotlarini tahlil qilamiz (1-jadval).

1-jadval.

Intellektual mulk obyektlariga patent olish statistikasi³

№	Intellektual mulk obyektlari	Yakunlangan	Jarayonda	Hammasi
1	Ixtiro	1232	3981	5213
2	Foydali model	282	3406	3688
3	Sanoat namunasi	716	1989	2705
4	Tovar belgisi	38298	13199	51497
5	EHM uchun yaratilgan dasturlar	49110	8966	58076
6	Integral mikrosxemalar	0	48	48

Intellektual mulk obyektlariga patent olish statistikasi jadvali tahlili quyidagi holatni ko'rsatmoqda. EHM uchun yaratilgan dasturlar eng ko'p patentlashtirilgan kategoriya bo'lib, jami 58076 ta patent (49110 ta yakalangan va 8966 ta jarayondagi) mavjud. Undan keyin tovar belgilari ikkinchi o'rinda turib, umumiy soni 51497 tani (38298 ta yakalangan va 13199 ta jarayondagi) tashkil etadi.

Ixtirolar uchinchi o'rinda joylashgan bo'lib, jami 5213 ta patent (1232 ta yakalangan va 3981 ta jarayondagi) bilan ro'yxatga olingan. Foydali modellarning umumiy soni 3688 ta (282 ta yakalangan va 3406 ta jarayondagi) ni tashkil etadi. Sanoat namunalari esa 2705 ta patent (716 ta yakalangan va 1989 ta jarayondagi) bilan beshinchi o'rinda turibdi.

Eng kam patentlashtirilgan kategoriya integral mikrosxemalar bo'lib, ular faqat 48 ta patent bilan (yakalanganlari umuman yo'q, barcha 48 tasi jarayonda) oxirgi o'rinda turadi. Umumiy statistikaga ko'ra, texnologik yechimlar va dasturiy ta'minot sohasidagi intellektual mulk obyektlari patentlashtirishda yetakchilik qilmoqda, integral mikrosxemalar esa bu borada sezilarli darajada orqada qolmoqda.

³ <https://im.adliya.uz/>

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda intellektual mulk tizimini shakllantirish va rivojlantirish borasida muhim huquqiy asoslar yaratilgan bo'lsa-da, tizimni yanada takomillashtirish, intellektual mulk obyektlarini samarali himoya qilish va tijoratlashtirish yo'nalishlarida hali ko'plab vazifalar mavjud. Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va xalqaro tajribalarni o'rganish orqali intellektual kapitalning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish zarur. Statistik ma'lumotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, intellektual mulk sohasida qabul qilingan strategiyalar ijobiy natijalar bermoqda, biroq raqamli texnologiyalar rivojlanishi va global raqobat sharoitida bu sohada barqaror taraqqiyot uchun tizimli va izchil islohotlarni davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda intellektual mulk tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qonunchilik bazasini takomillashtirish: Intellektual mulk sohasidagi amaldagi qonunlarni xalqaro standartlar va zamonaviy talablar asosida yangilash, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar bilan bog'liq yangi sohalarda huquqiy tartibga solishni kuchaytirish.

2. Intellektual mulkni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish: Ilmiy-tadqiqot muassasalari va biznes o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, intellektual mulkni baholash va litsenziyalash amaliyotini soddalashtirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.

3. Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish: Oliy ta'lim muassasalarida intellektual mulk bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini joriy etish, patent vekillari va intellektual mulk bo'yicha yuristlar tayyorlash tizimini kuchaytirish, xalqaro malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.

4. Raqamli muhitda intellektual mulk himoyasini takomillashtirish: Internet tarmog'ida mualliflik huquqi buzilishiga qarshi kurashish mexanizmlarini joriy etish, onlayn platformalarda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, raqamli sohadagi intellektual mulk buzilishlariga tezkor munosabat bildirish tizimini yaratish.

5. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: O'zbekistonning intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnoma va kelishuvlarda ishtirokini kengaytirish, WIPO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va qo'llash.

Ushbu takliflarni amalga oshirish O'zbekistonda intellektual mulk tizimini yanada takomillashtirish, intellektual faoliyat natijalarini samarali himoya qilish va tijoratlashtirish, shuningdek, mamlakatni innovatsion rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

References.

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/docs/-5841063>
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori 26.04.2022 yildagi PQ-221-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-5987120>
- [3]. O'zbekiston Respublikasining "Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, 20.08.2021 yil O'RQ-709-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5592857>
- [4]. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси 59-65-боблар. IV бўлим. интеллектуал мулк 59-боб. умумий қоидалар, 1031-модда. Интеллектуал мулк объектлари. [https://nrm.uz/contentf?doc=9134_fuqarolik_kodeksi_\(59-65_boblar_1031-1111_moddalar\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=9134_fuqarolik_kodeksi_(59-65_boblar_1031-1111_moddalar)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)
- [5]. Wenwei Guan "Intellectual Property Theory and Practice" A Critical Examination of China's TRIPS Compliance and Beyond Book © 2014 <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-55265-6>
- [6]. Pererva, Petro; Ievsieiev, Andrii; Maslak, Mariya; Tkachov, Maksym; Tkachova, Nadiya "Formation of intellectual property commercialization strategies" https://openurl.ebsco.com/EPDB%3Aagcd%3A8%3A9190584/detailv2?sid=ebsco%3Aplink%3Ascholar&id=ebsco%3Aagcd%3A175972607&crl=c&link_origin=scholar.google.com
- [7]. Dobrenkov V.I., Alekseevich A.Y., Pavlovna G.G., Orlova L.V., Nikolaevna P.N. and Talgatovna S.G. "Innovative development: international experience of intellectual property commercialization" Yevropa tadqiqot tadqiqotlari jurnali 2017 yil <https://www.um.edu.mt/library/oar/handle/123456789/32612>
- [8]. Y.E.Aliyev "Innovatsion iqtisodiyot" o'quv qo'llanma, – T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 236 bet. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/10/15/NamDU-ARM-13443-Innovatsiion_iqtisodiyot.pdf

- [9]. Mamatov A.A., Jo‘rayev T.T., Erkayev A.N. “Innovatsion iqtisodiyot” o‘quv qo‘llanmasi, –T.: 2019, 456 bet. https://renessans-edu.uz/files/books/2024-01-05-05-25-04_d0f6e5b08240a37208698497799752eb.pdf
- [10]. Ismoilov, Shahboz Baxtiyorjon o‘g‘li “O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik aloqalari” maqola Журнал: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-respublikasining-intellektual-mulk-muhofazasi-bo-yicha-butunjahon-intellektual-mulk-tashkiloti-bilan-hamkorlik>
- [11]. Holmirzayeva Gulruh, Qurbonov Tolmasjon va Shodiyev Fazliddin “Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo‘llari” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 2025-y. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
- [12]. <https://uzmarkaz.uz/news/ozbekiston-respublikasida-intellektual-mulk-sohasini-rivojlantirish-strategiyasining-ahamiyati-2022-2026-yillarda>